O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg‘ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» “Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo‘limida tayyorlandi.



**Tahrir hay’ati**

**Bosh muharrir** SHERMUHAMMADOV B.SH.
**Mas’ul muharrir** ZOKIROV I.I

| | | |
|---|---|---|
| FARMONOV Sh. (O‘zbekiston) | JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) | G‘ULOMOV S.S. (O‘zbekiston) |
| BEZGULOVA O.S. (Rossiya) | LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya) | BERDISHEV A.S. (Qozog‘iston) |
| RASHIDOVA S. (O‘zbekiston) | A’ZAMOV A. (O‘zbekiston) | KARIMOV N.F. (O‘zbekiston) |
| VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) | KLAUS XAYNSGEN (Germaniya | CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) |
| ZAYNOBIDDINOV S.( O‘zbekiston) | BAXODIRXONOV K. (O‘zbekiston) | TOJIBOYEV K. (O‘zbekiston) |

**Tahririyat kengashi**

| | |
|---|---|
| QORABOYEV M. (O‘zbekiston) | ISKANDAROVA Sh. (O‘zbekiston) |
| OTAJONOV S. (O‘zbekiston) | SHUKUROV R. (O‘zbekiston) |
| O‘RINOV A.Q. (O‘zbekiston) | YULDASHEVA D. (O‘zbekiston) |
| KARIMOV E. (O‘zbekiston) | JO‘RAYEV X. (O‘zbekiston) |
| RASULOV R. (O‘zbekiston) | KASIMOV A. (O‘zbekiston) |
| ONARQULOV K. (O‘zbekiston) | SABIRDINOV A. (O‘zbekiston) |
| YULDASHEV G. (O‘zbekiston) | XOSHIMOVA N. (O‘zbekiston) |
| XOMIDOV G‘. (O‘zbekiston) | G‘OFUROV A. (O‘zbekiston) |
| DADAYEV S. (O‘zbekiston) | ADHAMOV M. (O‘zbekiston) |
| ASQAROV I. (O‘zbekiston) | XONKELDIYEV Sh. (O‘zbekiston) |
| IBRAGIMOV A.(O‘zbekiston) | EGAMBERDIYEVA T. (O‘zbekiston) |
| ISAG‘ALIYEV M. (O‘zbekiston) | ISOMIDDINOV M. (O‘zbekiston) |
| TURDALIYEV A. (O‘zbekiston) | USMONOV B. (O‘zbekiston) |
| AXMADALIYEV Y. (O‘zbekiston) | ASHIROV A. (O‘zbekiston) |
| YULDASHOV A. (O‘zbekiston) | MAMATOV M. (O‘zbekiston) |
| XOLIQOV S. (O‘zbekiston) | SIDDIQOV I. (O‘zbekiston) |
| MO‘MINOV S. (O‘zbekiston) | XAKIMOV N. (O‘zbekiston) |
| MAMAJONOV A. (O‘zbekiston) | BARATOV M. (O‘zbekiston) |

**Muharrir:** Sheraliyeva J.



**Tahririyat manzili:**
150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog‘oz bichimi: - 60×84 1/8
Bosma tabog‘i:
Ofset bosma: Ofset qog‘ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №
FarDU nusxa ko‘paytirish bo‘limida chop etildi.
**Manzil:** 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy.

**Farg‘ona,**
**2022.**

**X.Mamajonov**
Amir Temur hamda To‘xtamishxon o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar ... 113

ADABIYOTSHUNOSLIK

**X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova**
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari ... 118
**A.Abduraxmonov**
Zamonaviy o‘zbek nasrida rangning g‘oyaviy yo‘nalishni tashkillashdagi ahamiyati ... 122
**B.To‘rayeva**
Xronotop poetikasining o‘ziga xos xususiyatlari ... 127
**N.Karimova**
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi ... 134
**P.Ro‘ziboyeva, B.Karimov**
Abdulhamid Cho‘lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta’limi masalasi ... 138
**N.Avazov**
“Padarkush”ning ta’siri va jadid dramalarining yaratilishi ... 143
**Sh.Axmedova**
Omon matjon she’riyatining badiiy jihatlari ... 151
**N.Soatova**
Shuhratning masal va hajviy she’r yaratish mahorati ... 155
**Sh.Turg‘unov**
Harbadoshlarning o‘langa nisbatan ta’rifi xususida ... 162

TILSHUNOSLIK

**Sh.Iskandarova, F.Musayeva**
Muhammad Yusuf she’rlarida zamon tushunchasining o‘rganilishiga doir ... 168
**D.Ganiyeva**
Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi ... 171
**Sh.Amonturdiyeva**
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari ... 176
**N.Xoshimova**
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi ... 184
**M.Hojiyeva**
Terminologik kompetentlik – bo‘lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida ... 187
**V.Giyosova**
Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar ... 190
**S.Ahmadaliyeva**
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida ... 193
**H.Saipova**
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari ... 197

MATEMATIKA

**T.Ergashev, D.Urinboyeva**
Ikkinchi tartibli ikki o‘zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida ... 201
**B.Kadirkulov, M.Jalilov**
Involyutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo‘yilgan teskari masala ... 209
**N.Murolimova**
Vazn funksiyasiga ega bo‘lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to‘lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala ... 214

FIZIKA - TEXNIKA

**X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov**
Zamonaviy elektr jihozlarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ... 223
**M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov**
Texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o‘rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari ... 228

TILSHUNOSLIK

UDC: 811.111:37.091.33-028.22 DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a35

# TERMINOLOGIK KOMPETENTLIK – BO‘LAJAK FILOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING ASOSI SIFATIDA

# ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ - КАК ОСНОВА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ-ФИЛОЛОГОВ

# THE IMPORTANCE Of TERMINOLOGICAL COMPETENCE IN TRAINING OF FUTURE PHILOLOGISTS

**Hojieva Minovvarxon Akramovna**[1]

[1]**Hojieva Minovvarxon Akramovna** − Namanga davlar universiteti tayanch doktoranti.

***Annotatsiya***

*Ushbu maqola bo‘lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashda terminologik kompetentlikning o‘rni va ahamiyati mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda kompetentsiya, uning mazmun-mohiyati, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik jarayonda kasbiy kompetentlikning o‘rni, terminologik kompetenlik kabi terminlarining qo‘llanishi xususida batafsil ma’lumot berilgan. Bo‘lg‘usi filolog o‘qituvchida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish omillari, asosiy komponentlari, kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kasbiy muammolarni hal qilish, terminologik kompetentlik, terminologik kompetentlikning filolog mutaxassislar yetishtirishdagi zaruriy ehtiyoj ekanligi ochib berilgan. Bo‘lajak mutaxassis – o‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarurligi, nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, ifodaviyligi, nutqning sofligi, uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lishi, yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun esa sohasiga oid terminlarni mukammal egallashi kerakligi,terminologik kompetentlik bo‘lajakmutaxassisning o‘rganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olishi, shu tilda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalashi, mutaxassislikka oid terminlarni tushunish layoqati dolzarb ekanligi xususida fikrlar bayon etilgan. Terminologik kompetentlik va uni shakllantirishda o‘quv lug‘atlarining o‘rni, ahamiyati, mazkur jarayon haqida yetakchi olim va tadqiqotchilarni fikrlari bayon etilgan.*

***Аннотация***

*Данная статья посвящена роли и значению терминологической компетентности в подготовке будущих филологов, в которой дается подробная информация об использовании таких терминов, как компетентность, ее содержание, профессиональная компетентность, роль профессиональной компетентности в педагогическом процессе, терминологическая компетенция. Для подготовки филологов необходимы факторы, основные компоненты формирования профессиональных компетенций у будущего учителя-филолога, решение профессиональных задач, которые могут возникнуть в процессе профессиональной деятельности, , терминологическая компетентность. Будущий специалист-педагог должен обладать культурой речи, точностью, точностью, выразительностью речи, чистотой речи, отсутствием в ней различных диалектов, а чтобы стать зрелым специалистом, должен владеть терминологией отрасли, терминологической грамотностью. уметь разумно использовать его в своей профессиональной деятельности, самостоятельно выражать свое мнение на этом языке устно и письменно, уметь разбираться в терминах специальности. Описаны терминологическая компетентность и роль и значение учебников в ее формировании, взгляды ведущих ученых и исследователей на этот процесс.*

***Abctract***

*This article is devoted to the role and importance of terminological competence in the training of future philologists, which provides detailed information on the use of terms such as competence, its content, competence, professional competence, the role of professional competence in the pedagogical process, terminological competence. The factors, the main components of the formation of professional competencies in the future philologist teacher, the solution of professional problems that may arise in the course of professional activity, terminological competence, terminological competence are necessary for the training of philologists. The future specialist - the teacher must have a culture of speech, accuracy, precision, expressiveness of speech, purity of speech, its absence of various dialects, and in order to become a mature specialist must master the terms of the field, terminological competence. to be able to use it wisely in their professional activity, to express their opinion independently in this language orally and in writing, to be able to understand the terms of the specialty. Terminological competence and the role and importance of textbooks in its formation, the views of leading scholars and researchers on this process are described.*

***Kalit so‘zlar:*** *kompetentsiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, terminologik kompetentsiya, bilim, ko‘nikma, malaka,ta’lim.*

***Ключевые слова:*** *компетентность, компетенция, профессиональная компетентность, терминологическая компетентность, знание, умение, квалификация, образование.*

***Key words:*** *competence, competency, professional competence, terminological competence, knowledge, skill, qualification, education.*

## KIRISH

Hozirga davrda mutaxassis professional kompetentlikka ega bo‘lishi bu zamon talabidir. Chunki o‘qituvchining professional kompetentligi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlar yig‘indisini tashkil etadi. Til ta’limiga terminologik

kompetentlikka ega boʻlish, lingvistik terminlarni mohiyatini oʻrganish asosida kechadigan jarayon sifatida qarash oʻrinli hisoblanadi. Boʻlajak filologlarni terminologik kompetentlikka ega boʻlishi, ona tilida terminlarning puxta ishlatilishi, va terminlarni tartibga solinilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kompetentsiya tushunchasi lotincha “competentia” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “qonunan ega”, “haqdor” degan maʼnoni anglatadi, lugʻaviy jihatdan “qobiliyat”, “koʻnikma”, “iqtidor” tushunchalarini ifodalaydi [1, 91]. “Kompetentlik” tushunchasi taʼlim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noanʼanaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning oʻzini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan oʻzaro munosabatlarda yangi yoʻl tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga toʻla maʼlumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrativ bilimlar va harakatlarning oʻzlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishi, yangi axborotlarni oʻrganishni, muhim ijtimoiy talabalarni anglay olishni, yangi maʼlumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oʻz faoliyatida qoʻllay bilishini taqozo etadi [2,120].

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega boʻlishda oʻz ustida ishlash, oʻz-oʻzini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Oʻz-oʻzini rivojlantirish vazifalari oʻzini oʻzi tahlil qilish va oʻzini oʻzi baholash orqali aniqlanadi.

Kasbga oid kompetentlikning shakllanishi – uzluksiz jarayon. Pedagogning kasbiy kompetentligi shakllanishi oʻzini anglagan va oʻz kasbiy qobiliyatini rivojlantirish dasturiga ega boʻlib, oʻz faoliyatini tahlil qila oladigan, kamchiliklarini tugatish ustida tinimsiz izlanadigan davridan boshlanadi. Chunki pedagogik faoliyat jarayonida tinimsiz oʻz kasbiy faoliyati ustida ishlash zarur [3,15].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boʻlajak mutaxassis – oʻqituvchi nutq madaniyatiga ega boʻlishi zarur, nutqning toʻgʻriligi, aniqligi, ifodaviyligi, nutqning sofligi, uning turli sheva soʻzlaridan holi boʻlib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi, nutqning ravonligi va boyligi ham kasbiy kompetentlikning asosiy talablaridandir.

Boʻlajak oʻqituvchi mutaxassisligi boʻyicha chuqur, puxta bilimga ega boʻlishi, oʻz ustida tinimsiz izlanishi lozim. Yetuk mutaxassis boʻlib yetishishi uchun esa sohasiga oid terminlarni mukammal egallashi zarur. Shuning uchun ham kasbiy kompetentsiyaning yadrosi sifatida terminologik kompetentsiyani koʻrsatish oʻrinli. Terminologik kompetentlikka ega mutaxassis sohasiga oid terminlarni puxta oʻzlashtirib, ish faoliyatida ulardan unumli va oʻrinli foydalanadi, sohaga oid terminlarni bilish orqali oʻz fanining yetuk mutaxassisi boʻlib yetishadi.

Terminologik kompetentlik – boʻlajak mutaxassisning oʻrganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda oʻz fikrini ogʻzaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash, mutaxassislikka oid terminlarni tushunish, ularni oʻz oʻrnida qoʻllay bilish, terminlarning muqobillari, variantlari, sinonimlarini hamda tarixiy-etimologik manbalarini, terminlarning mazmun-mohiyatini mukammal bilish, ularni nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qoʻllay olish koʻnikma-malakalarini tarkib toptirish, yaʼni terminlarni maqsadli ravishda amaliy qoʻllash layoqatini shakllantirishdan iborat. Fanga oid oʻquv lugʻatlarini bilish muhim jarayon hisoblanib, oʻquv lugʻatlari bilan ishlash boʻlajak mutaxassisning nazariy bilimlarini kengaytiradi, bilimlarining amaliy jihatdan mustahkamlanishini taʼminlaydi.

N.Uluqov maktablar uchun yaratilgan oʻzbek tilidagi oʻquv lugʻatlarini taʼlimning yuqori boʻgʻinlarida talabalar uchun ham yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligini taʼkidlaydi[4,16].

B.Bahriddinova esa “nafaqat ona tili taʼlimi, balki boshqa fanlarni oʻqitish vositalariga koʻmak beradigan oʻquv terminologik lugʻatlarni ham yaratish” [5,8] muhimligini aytadi.

Darhaqiqat, talaba-boʻlajak mutaxassis uchun oʻz faniga oid lugʻatlardan foydalanish ularning mustaqil ishlashiga, mutolaa qilishiga, terminlarni oʻzlashtirishga qoʻshimcha manba boʻlib xizmat qiladi. Bu esa boʻlajak mutaxassisning soʻz boyligini orttirishga, oʻz fanining terminlarini mukammal oʻzlashtirishga imkon beradi. Yosh mutaxassislarning raqobatbardosh, yetuk kadr boʻlib

yetishishida sohaga oid terminlarni anglashi, ularni o‘z o‘rnida qo‘llashi, terminlarning mazmun-mohiyatini tushunishi, fanga oid terminlarni puxta o‘rganishi, terminlarni atama, istiloh va boshqa so‘zlardan farqini ajratishi muhim vazifa hisoblanadi.

Terminologik kompetentlik bo‘lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining uzviy qismi sanaladi. Terminologik kompetentsiya fanga oid terminlarni (fanga oid terminlarning ma’no-mohiyatini, variantlarini, sinonimlarini hamda ularning tarixiy-etimologik manbalarini o‘rganmasdan turib), ya’ni terminologik kompetentsiyasiz tilni egallash mumkin emas. Agar talaba o‘rganilayotgan til tizimi haqida tasavvurga ega bo‘lsa, sohaga oid terminlarni mazmunini, qo‘llanishini, puxta bilsa va amalda undan foydalana olsa, terminologik kompetentsiyaga ega desa bo‘ladi.

Terminologik kompetentlik – har tomonlama rivojlangan shaxsni tayyorlash, fanga oid terminlarni tushunish, muqobillari, variantlari va sinonimlarini hamda ularning kelib chiqish manbalarini, terminlarning mazmun-mohiyatini mukammal o‘rganishdan iborat. Filolog mutaxassislarda kasbiy kompetentsiyaning asosi, yadrosi – bu terminologik kompetentsiya hisoblanadi. Terminologik kompetentlikni egallagan mutaxassis o‘z sohasiga oid terminlarni o‘rganishi va ularni to‘plashi, zamonaviy terminlarni o‘rganishi va amaliyotga tadbiq qilishi maqsadga muvofiq.

Shuni ta’kidlash joizki, filologik kompetentlik hamda terminologik kompetenlikni rivojlantirish oliy ta’limning filologiya, balki barcha ta’lim yo‘nalishlarida mazkur kompetentlikka xos malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim. Ushbu jarayonda soha terminlarini o‘rganish va ularni jamlash, o‘z qatlam va o‘zga tillardan kirib kelgan terminlarni o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq qilish, terminlarni bo‘limlarga ajratgan holda o‘rganish va tahlil qilish zarur. Oliy ta’lim tizimida fanga oid terminlarni o‘rganuvchi maxsus fanlarni joriy qilish zarur. Chunki talaba o‘z sohasiga oid terminlarni chuqur o‘zlashtirishi orqali o‘z sohasini to‘liq anglaydi, uni amaliyotda qo‘llay biladi.

## XULOSA

Kuzatishlardan shuni aytish mumkinki, kompetentsiyaga asoslangan ta’lim talabalarda faollik, tashabbuskorlik kabi umummadaniy kompetentlikni shakllantiradi. Jamiyatda o‘z o‘rniga ega, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirish zamon talabi hisoblanadi. Terminlarni chuqur o‘rganish orqali talaba tanlagan kasbga mehrini kuchayadi, talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, kasbiga sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga e’tibor qaratish, ulardan hayot va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy asoslarda foydalana olish, o‘zbek tilini dunyo miqyosida targ‘ib qilish qobiliyatini shakllantirish kabi muqaddas maqsadni amalga oshiradi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык, 1988. – С.91. ( Dictionary of foreign words. - Moscow: Russkiy yazyk, 1988. - P.91.)
2. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. O‘quv-metodik majmua. Toshkent, 2016, – B. 120.( Innovative educational technologies and pedagogical competence. Educational-methodical complex. Tashkent, 2016, - P. 120.)
3. G‘ofurova T. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi – bugungi kun talabi // Til va adabiyot ta’limi. 2017, -№4, – B.15. (Gafurova T. Professional competence of a teacher - today's demand // Language and literature education. 2017, -№4, - B.15)
4. Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari // Til va adabiyot ta’limi. 2018, №6, – B.16. (Ulugov N. Factors of formation of linguistic competence // Language and literature education. 2018, №6, - B.16)
5. Bahriddinova B. O‘zbek o‘quv lug‘atchiligi istiqbollari // Til va adabiyot ta’limi. 2020, №4, – B. 8. (Bahriddinova B. Prospects of Uzbek educational lexicography // Language and literature education. 2020, №4, - B. 8)